



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Tarih fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"
yo'nalishi

РЕФЕРАТ

Mavzu:

O'rta Osiyo xalqlarining eng
qadimiy ma'naviyati

Bajardi: Oynazarov M.
Tekshirdi: U. Musayev

Toshkent-2014

Mavzu: **O'rta Osiyo xalqlarining eng
qadimiy ma'naviyati**

Reja:

Kirish

Asosiy qism:

1. O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviyatining takomil bosqichlari.
2. O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy taraqqiyotida qadimgi davr ma'naviyati.
3. Qadimgi davr ma'naviyatining O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kundan boshlab millatning ma'naviyatiga e'tibor qaratish dolzarb vazifa bo'lib maydonga chiqdi. Ushbu vazifaga dastlabki e'tiborni Respublika Prezidenti I.A.Karimov qaratdi va millat ma'naviyatini yuksaltirish, insonni ahloqiy va ma'naviy yuksaltirish masalasi davlat rahbarining eng muhim vazifalaridan ekanligini alohida ta'kidladi. Davlat rahbarining ushbu masalaga e'tibori o'z vaqtida bo'lgan edi, chunki "Sovet" tuzumi emirilib, 130 yillik siyosiy qaramlikdan qutulib, qayta qad rostlagan mustaqil davlatchilikning qiyofasini shakllantirish kerak edi. Sotsializm hojalarining xalqimiz hayotiga chetdan zo'ravonlik bilan joriy etilgani, ular xalqimizni manqurtlashtirish uchun xizmat qilgani ochiq haqiqat edi. Kelajak taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Shunday ekan, davlat tuzumini, jamiyat hayotini demokratlashtirish, iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish barobarida ma'naviyatga ham doimo alohida e'tibor qaratish talab etilishi voqeyi zaruratdir.

Yurtboshimiz qator ma'ruzalarida "yuksak ma'naviyat – kelajak poydevori" deya bu sohada erishilgan yutuqlarni tilga olish bilan birga kelajak yo'nalishlarni ham batafsil tahlil etib berdi. "Endigi asosiy vazifa kishilarimizning mustaqil fikrlashga o'rganishi, o'ziga ishonchining orta borishidir" deb ta'kidlaydi I.A.Karimov. Buning uchun har birimiz "Bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab", "buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy me'rosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'alarini yangi jamiyat qurilishiga tadbiiq etmohimiz kerak". 1

Darhaqiqat, ma'naviyatni o'rganish, u haqdagi manbalarni tahlil qilish orqali biz talabalar ma'naviy dunyomizni yanada boyitishimiz, mamlakat fuqorosi sifatida ota-bobolarimizdan qolgan ma'naviy merosimizni saqlab kelajak avlodga yetkazmog'imiz zarur. Ushbu masala esa ushbu kurs ishining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning maqsadi. O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy taraqqiyotida qadimgi davrni o'rganish, O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviyatining takomil bosqichlarini aniqlash hamda qadimgi davr ma'naviyatining O'rta Osiyo xalqlari taraqqiyotiga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish.

Mavzuning vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy taraqqiyotini o'rganish;
- O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy taraqqiyotida qadimgi davr ma'naviyatini aniqlash;
- Qadimgi davr ma'naviyatining O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy taraqqiyotiga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish.

O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviyatining takomil bosqichlari.

Markaziy Osiyo xalqlari milliy ma'naviyati takomil bosqichlari bu o'lka xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu sahnda yuz beruvchi hodisa sanaladi. Xalqimiz madaniy taraqqiyoti o'ta murakkab tarixiy hodisalar majmuini tashkil etib, o'z ichiga bir necha ming yilliklarni qamrab oladi. Ana shu murakkab va ko'p ming yillik ma'naviy takomilimiz jarayonidan asosiy bo'g'inlarni ajratib olishimiz lozim. Busiz milliy ma'naviyatimiz rivojlanishi bosqichlari haqida fikr yuritib bo'lmaydi. Ko'pgina tadqiqotchilarning, shu jumladan M. Imomnazarovning bu boradagi fikrini qo'llab, unga qo'shilib milliy ma'naviyatimizning necha ming yillik tarixini uch yirik davrga (balkim to'rt davrga) ajratib ko'zdan kechirishni ko'p jihatdan maqbul bildik:

1. Islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyoti.

2. Islom mintaqa madaniyati takomilida milliy ma'naviyatimizning o'rni va mavqei.

3. Yangi davr jahon madaniyati va milliy ma'naviyatimiz takomili masalalari. (Biz nazarda tutgan to'rtinchi davrga balkim Temur va Temuriylar davri ma'naviyatini alohida davr sifatida izohlash maqsadga muvofiqroq bo'larmikin).

Bu davrlar o'z ichiga olgan tarixiy davrlar muddatiga ko'ra aslo teng emas. Birinchi davr bir necha ming yillarni qamrab olsa, ikkinchi davr 11-12 asrni (1000-1200 yilni) o'z ichiga oladi. Uchinchi davr esa bizning o'lkamiz - Turkiston uchun deyarli 100-150 yilni tashkil etadi.

Biz mazkur ma'ruza matnida Islomgacha ma'naviyatimiz takomili, mazmuni va mohiyati haqida fikr yuritamiz. Islomgacha bo'lgan milliy ma'naviyatimiz va uning takomillashishi haqidagi eng muhim manbalar guruhini to'rtga bo'lish mumkin. 1. Zardushtiylikning «Avesto» kitobi va turkiy bitiklar (yozuvlar). 2. Qadim SHumer, Bobil, Ashshur, qadim Misr, YUnon, Hind, Xitoy manbalari va Eron shahanshohlaridan qolgan toshbitiklar. 3. Arxeologik yodgorliklar - moddiy ashyolar va turli inshootlar. 4. Xalq og'zaki va yozma adabiyot namunalari, urf-odat va marosimlar, o'yinlar, bayramlar va boshqalar.

Bizning eng qadimiy ajdodlarimiz ma'naviyat va ma'rifati haqidagi ma'lumotlar asrlardan asrlarga o'tib hozirgacha saqlanib qolgan mif, afsonalar va qadimiy yozuvlarda saqlanib kelayotir. O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy mif va afsonalari turli mavzularda bo'lgan. CHunonchi kosmogonik miflar, hayvonlar va qushlar haqidagi miflar, xudolar va afsonaviy qahramonlar haqidagi miflar bo'lib, ularda yaxshilik, baxt-saodat, quyosh nuri va issiqlik yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo'yilgan. SHu asosda baxt o'lkasi va baxtsizlik o'lkasi degan miflar yuzaga kelgan. YAxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi kurash mifologik obrazlar Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima (Jamshid), Elikbek va boshqalar obrazida mujassamlashtirilgan. Bular haqidagi miflar biz keyingi masalada ko'rib o'tadigan zardushtiylikning «Avesto» kitobiga ham kirgan.

Mitra – quyosh xudosi. U kishilarga nur, issiqlik, baxt-saodat baxsh etadi. SHu bilan birga u yaxshi qurollangan bo'lib, dushmanlarga qarshi dahshat soladi, kishilarni ofatdan qutqaradi. Mitra bitmas-tuganmas kuchga ega bo'lgan pahlavon

sifatida tasvirlangan. U dushmanga qarshi shafqatsizlik bilan jang qiladi va uni mahv etadi. Mitra – o'tda kuymas, suvda cho'kmas, o'q o'tmas qahramon.

Kayumars haqidagi mif ham «Avesto»ga kirgan. Mifologiyaga ko'ra Kayumars er yuzida paydo bo'lgan birinchi odam bo'lib, go'yo u Axura Mazda (Xurmuz) tomonidan yaratilgan va ikki vujudan: ho'kiz va odamdan tashkil topgan. Insoniyatning ashaddiy dushmani bo'lgan Axriman Kayumarsni o'ldiradi. Kayumars tanasining ho'kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o'simlik, sigir va ho'kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo'ladi; tananing odam qismidan esa erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga kelgan deb tasvirlanadi.

Yima (Jamshid) haqidagi mifda kishilar uchun najotkor hukmron obrazi tasvirlangan. Shunday qilib, yuqoridagi kabi xalq og'zaki ijodi – miflarda xalq najotkori va xaloskori tasvirlanadi, kishilarning ma'naviy g'alabasi va o'z kelajagiga ishonchi tasvirlangan.

Xalq og'zaki ijodida mifologik obrazlar bilan birga afsonaviy qahramonlar obrazi ham yuzaga kelgan. Bu qahramonlar kishilarning osoyishtaligi va baxt-saodati uchun kurashib, fidokorlik ko'rsatadilar. CHunonchi, Gershasp va Elikbek haqidagi afsonalarda ajdar va jinlarni enggan, o'limdan qo'rqmas, mard, bahodir, kishilarni halokatdan qutqaruvchi qahramonlar obrazlari tasvirlangan.

Qadim O'rta Osiyo aholisi yaratgan og'zaki adabiyot yodgorliklari orasida qahramonlik eposi katta va muhim o'rin tutadi. Ularda xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik kurashi asosiy o'rinni egallagan. Chunonchi To'maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush haqidagi xalq og'zaki eposlarida vatanparvar va fidokor bahodirlarning monumental obrazlari yaratilgan.

«To'maris» eposida O'rta Osiyo aholisining chet el bosqinchilariga, xususan eramizdan avvalgi VI asrda bu o'lkaga bostirib kirgan eron ahmoniylari shohi Kirga qarshi massaget qabilalarining qahramonona kurashi aks etgan. Kir qo'shini tor-mor etilib, uning o'zi e.a. 529 yilda jang maydonida o'ldiriladi, kallasi tanasidan judo etilib, qon bilan to'ldirilgan meshga solinadi.

«Shiroq» eposi ham O'rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashini aks ettiradi. Vatanparvarlik va jasorat, vatan va o'z xalqi baxti-saodati yo'lida fidoyilik qilishga shay, tayyor turish kabi yuksak ma'naviylik sak qabilasining cho'poni SHiroq timsolida gavdalangan.

Yuqoridagi har ikkala xalq og'zaki ijodi namunalari zaminida haqiqiy tarixiy faktlar yotadi.

To'maris va Shiroq xalq qahramoni bo'lib, o'z xalqi, Vatani uchun jonini ham ayamaydigan buyuk va betimsol mardlik va jasorat namunasi sanaladi. Ularga ham qoyil qolib havas qilamiz.

Qadimiy turkiy tilda yaratilgan yozma yodgorliklardan bizgacha O'rxun - Enisey va uyg'ur tilidagi yodgorliklar saqlanib qolgan. O'rxun - Enisey yodgorliklari V-VIII asrlarga mansub bo'lib, ulardan Kul-Tagin, Bilka-qoon, Tunyukuk qabr toshlariga o'yib yozilgan tekstlar ayniqsa ahamiyatlidir. Bu yozuvlarni turkiy-run yozuvi ham deb yuritiladi. Run yozuvi - «yashirin», «sirli» yozuv demakdir. CHunki ularni ancha vaqtgacha o'qishning iloji bo'lmagan.

Kul-Tagin Bilka-qoon (ulug' hoqon demakdir) ning ukasi bo'lib 732 yili vafot etgan. U urushlarda zo'r qahramonliklar ko'rsatgan. Kul-Tagin qabr toshida Bilka-

qoonning tilidan aytilgan judolik qayg'usi marsiyasi badiiy til vositasida ifodalangan. U o'z ukasining vafotidan juda qayg'uga tushadi. CHunonchi: Agar Kul-Tagin bo'lmasa edi, hammangiz halok bo'lur edinglar. Mening inim Kul-Tagin o'ldi, men qattiq qayg'urdim, ko'rar ko'zlarim ojiz bo'ldi, aql-fahmim o'tmas bo'lib qoldi, o'zim qayg'urdim. Qismatni ko'k samo (xudo) taqsim qiladi, odam bolasi o'lish uchun tug'ilgan.... kabi so'zlar yozilgan.

Kul-Tagin qabr toshi yozuvi turk xoqonligi davlatining ijtimoiy-siyosiy xayoti, qabila va xalqlarning urf-odatlarini, tili va mafkurasi bilan tanishtiruvchi manbadir.

Markaziy Osiyoda ma'naviyat bilan birga ma'rifat ham rivojlangan. Ma'rifat rivojining isboti sifatida bu o'lka xalqlarining yozuvini ko'rsatish mumkin. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o'rtalarida oromiy, grek yozuvlari, forsiy mixxat mavjud bo'lgan. Keyinroq avesto, xorazm, sug'd, kushon, run (O'rxun - Enisey), uyg'ur yozuvi kelib chiqqan.

Qadim O'rta Osiyoda astronomiya, geometriya, geodeziya, matematika, fizika, meditsina fanlari rivoj topgan. Bizga qadar saqlanib qolgan sug'd kalendari va Beruniy asarlaridagi ma'lumotlar bu o'lkada, ayniqsa astronomiya fani rivojlanganidan darak beradi.

O'rta Osiyo xalqlari juda qadim zamonlardayoq sug'orish inshootlari qurganlar, kanallar ochganlar, chig'ir va koriz usuli bilan suvsiz erlarga suv chiqarganlar. Albatta bular kishilardan ma'lum tajriba va bilimni talab etgan.

O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy rivojida Zardushtiylik diniy ta'limoti va uning muqaddas manbasi hisoblangan "Avesto"ning o'rni katta. Chunki bu kitobda inson ma'naviyatining rivoji, insonni ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiluvchi yuksak g'oyalar mavjud.

«Avesto»da mehnat nihoyatda ulug'lanadi. Mehnatni yaxshilik, moddiy noz-ne'matlar manbai deb biladi. Inson saxovatli bo'lishi uchun avvalo mehnat qilishi, o'z qo'li bilan noz-ne'matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi. «Avesto»da: *«Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a suradi, imonni oziqlantirib turadi..»*, deyiladi. *Bunga amal qilish o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish – erdagi yovuzlikni yo'qotishdir*, deb qaraladi. *«G'alla yerdan unib chiqqanda, - deyiladi «Avesto»da, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib un qilinayotganda ular mahv bo'ladi...»* deb mehnat ulug'lanadi.

«Avesto»da inson axloq-odobi, ma'naviyati quyidagi uchlikda: Gumata - yaxshi fikr, Gugta-yaxshi so'z, Gvarshta-yaxshi ishda ifodalanadi. *«Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon- shavkat baxsh etaman»*, -deb ta'kidlaydi Axura Mazda.¹

Yaxshi fikr deganda yaqin kishilarga mehribonlik, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tushuniladi.

¹ Qarang: M. Imomnazarov. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T., "O'zbekiston" faylasuflar milliy jamiyati. 2006 y. 57-bet.

Yaxshi soʻzlar deganda esa oʻz vaʼdasiga rioya qilish, soʻzining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol boʻlishga, qarzini oʻz vaqtida toʻlash, oʻgʻrilik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan oʻzini tiyish va hakoza tushunilgan.

Yaxshi ishlar deganda insonning oʻz xatti-harakatida yaxshi fikr va yaxshi soʻzlarda ilgari surilgan barcha ijobiy yoʻl-yoʻriqlarga ogʻishmay amal qilish nazarda tutiladi.

Zardushtiylik axloq-odobi hayvonlarga nisbatan ham beshafqat boʻlishni qatʼiyan man etadi. Hayvonlarni kaltaklash va qiynash - gunoh deb hisoblanadi. Kishilarni foydali hayvonlar haqida gʻamxoʻrlik qilishga, ularga oʻz vaqtida ovqat berib turishga, yirtqich hayvonlardan qoʻriqlashga daʼvat etadi. «Avesto»da tozalik, poklikka alohida eʼtibor qaratilgan. Hovuzdan yuvilmagan, iflos koʻzada suv olgan kishi besh darra bilan jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish, poklanish qatʼiyan qoralangan.

«Avesto»da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida eʼtibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urugʻ, aka-ukaning quda-anda boʻlishi qoralangan.

Hozirgi meditsina fani aka-uka, yaqin qarindoshlar oʻrtasidagi qudachilik munosabatlari kelajak avlodning sogʻlom, toʻla-toʻkis boʻlib tugʻilishiga salbiy taʼsir koʻrsatishini toʻliq aniqlagan. Buni esa bizning ajdodlarimiz allaqachon aniqlaganlari hozirgi zamon kishisini lol qoldiradi. Qolaversa, yaqin kishilarning nikoh masalalarida maʼnaviy jihatlar ham borki, bunga inson qalbi yoʻl bermasligi kerak.

Koʻrinadiki, Oʻrta Osiyoda keng tarqalgan qadimiy Zardushtiylikda oila va nikoh masalalari, inson muammosiga muhim ahamiyat berilgan.

Insonning jismoniy va maʼnaviy pokligi zardushtiylik axloqi-ning eng qadimiy talablaridandir. Oila va nikoh yaratguvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish taqiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin axloqsizlik, yaʼni buzuqchilik gunohi sodir etsa, unday kishilar tayoq bilan jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar.

Zardushtiylik taʼlimotidan koʻrinib turibdiki, Sharqda qadimdan oila muqaddas hisoblangan. Uni mustahkamlab, darz ketishiga yoʻl qoʻymaganlar. Zardushtiylikda qabristonlar aholi turar joyidan chetda, tepalik joyda boʻlishi kerakligi, u erga mevali daraxt oʻtqazish, oʻstirish mumkin emasligi, archa, qayragʻoch kabi mevasiz daraxt oʻstirish kerakligi taʼkidlanadi. «Avesto»da aholining koʻpayishiga ham ahamiyat berilgan. Qasddan erga chiqmaydigan qiz qopga solinib, 50 darra urilgan. Qasddan uylanmagan yigitga ham 50 darra urilgan va beliga temir kamar bogʻlab yurish buyurilgan.

«Avesto»da qadimgi tabiblarning qasamyodi va tabobat ramzi Ilon va jom berilgan. Demak, tabib qasamyodi va ramzi Gippokratdan emas, balki bizdan boshlangan. Bu ham bizning maʼnaviyatimiz qadimiyligini koʻrsatuvchi dalillardan biridir. Kitobda maʼrifatga, ilm va hunarni boshqalarga oʻrgatish kerakligi ham uqtirilgan.

Markaziy Osiyoda quldorlik jamiyati eramizning II-III asrlariga kelib inqirozga yuz tutdi va oʻz oʻrnini feodal munosabatlariga boʻshatib bera boshladi. Bu holat zardushtiylik ichida yangi oqim Moniylik taʼlimotining yuzaga kelishi va kuchayishiga olib keladi. Ushbu oqimning asoschisi Moniy (216-276 y) boʻlib, u

tarixiy shaxsdir. Uning ta'limoti hukmron tabaqalar manfaatiga zid bo'lgani uchun 276 yilda vahshiylarcha o'ldirildi. Moniy boy adabiy meros yaratgan bo'lsa ham, lekin uning ba'zi asarlaridan parchalargina bizgacha etib kelgan, xolos. Uning ma'naviy-axloqiy qarashlari «Sir ul asror» (Siru asror kitobi), «Kitob-ul-xudovost-tadbir» (Rahbarlik va boshqaruv kitobi), «SHaburkan» va boshqalarda bayon etilgan.

Moniy ta'limoti zardushtiylikning yaxshilik va yomonlik ta'limotiga asoslangan bo'lib, keng xalq ommasining manfaatiga mos kelar edi. Moniylik ta'limotida dunyo - ziyo (yorug'lik) va zulmat (qorng'ulik) ning abadiy kurash maydonidan iborat, mana shu kurash maydonida insonning asosiy vazifasi yovuzlikni yo'q qilish uchun yaxshilik, ezgulikka ko'maklashishdan iborat degan ma'naviy-axloqiy ta'limot ilgari suriladi.

Moniy ta'limotiga ko'ra, inson sof musaffolikka, o'z gunoh-laridan holilikka faqat tarkidunyo qilib hayot kechirishi orqaligina erishishi mumkin, deb qaraladi. Moniylik axloqi dindorlardan imkoni boricha kam ovqat eyishni, ro'za tutishni (demak ro'za tutish odati islomdan avval ham bo'lgan), o'z turmushi, hayoti uchun kerakligidan ortiqcha mol-mulkka, boylikka yo'l qo'ymaslikni, mo'tadil, o'rtacha, dabdabasiz hayot kechirishni targ'ib etadi. Moniy o'z muridlari, izdoshlarini dunyoviy ishlarda «surbet» bo'lmaslikka va dunyoda ko'p narsalarga intilmaslikka da'vat qiladi. «Zero o'limdan keyin hech kimsada ro'zg'or asboblari bilan hovli ham, uy ham qolmaydi». Boshqacha aytganda, inson hayoti davomida orttirgan boyliklarini o'zi bilan olib keta olmaydi, ularning hammasi undan keyin qolib ketadi. Moniy aytadi: «Men o'z umrimda ko'p hokimlarni ko'rdim, ular dunyoda axloqsizlik qilib, manmanlikka berilib yurdilar, ammo oxirida g'am-alamlarga, tubanlikka duchor bo'ldilar».² Demak, Moniyning bu so'zlaridan biz ham ibrat olishimiz foydadan holi emas.

Eramizning V asr oxiri VI asr boshlarida Eronda «mazdakizm» deb atalgan boshqa diniy-falsafiy ta'limot yuzaga kelib, u Markaziy Osiyoda ham keng yoyildi. Mazdakizm feodal munosabatlarning rivoji va u bilan bog'liq holda xalq ahvolining og'irlashuvi va ikki o'rtada ziddiyatlar va kurashning kuchayishi oqibatida yuzaga kelgan.

Mazdakizmning Moniylik ta'limoti bilan ko'p o'xshash tomonlari bor. U Moniylik ta'limotini to'ldirib, uning zohidlik - noumidlik g'oyalarini dunyoga umid bilan qarash g'oyalariga almashtiradi.

Moniylikdagi kabi mazdakizmda ham dunyoni tushunish negizida bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch: yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat kurashi yotadi deb qaraladi. Bu kurashda yaxshilik yomonlik ustidan, yorug'lik zulmat ustidan g'alaba qiladi, deb ishonch bildiriladi. Mazdakning aytishicha, yomonlik va zulmat kuchlari hukmronlik qilar ekan, kishilar ularga nisbatan befarq bo'lishlari kerak emas, balki yaxshilik kuchlariga yordam berishlari kerak.

² M. Imomnazarov. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T., "O'zbekiston" faylasuflar milliy jamiyati. 2006 y. 88-bet.

Mazdakning fikriga ko'ra, ijtimoiy tengsizlik kishilar o'rtasida ziqnalik, o'g'rilik, yomonlik, makkorlik, shafqatsizlik, urushlar, turli-tuman falokat va baxtsizliklar kabi illatlarni keltirib chiqaradi. Shu boisdan bunday yovuzliklarni keltirib chiqaruvchi asosning o'zini tugatish kerak, deb hisoblaydi. Olloh hammaga mol mulkni teng bo'lgan, ammo boylar xudbinlik yo'llariga o'tib (o'zim bo'lay), barcha boylikni o'ziniki qilib olish yo'liga o'tgan. Kambag'allar ham mol-mulkka egalik qilish huquqiga ega, shuning uchun boy-badavlat kishilar mol-mulkining bir qismini ular o'rtasida taqsimlab berish odilona ish bo'ladi degan g'oya ilgari suriladi. Albatta Mazdakning bunday qarashlari hukmron tabaqa manfaatlariga zid edi. Mana shuning uchun ham Mazdak va uning tarafdorlari ta'qib ostiga olindi va ular shafqatsizlarcha jazolandilar.

Mazdakizm ma'naviy-axloqiy ta'limotida ham xuddi Zardushtiylilik ta'limotidagi kabi hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik qilish, urish man etiladi.

Xulosa shuki, Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviy yuksalishida, xalq ongida adolatsizlik, zulm, zo'rlik, shafqatsizlikka qarshi kurash fazilatlarining shakllantirishi o'zining uzoq tarixiga ega, xalqimiz ma'naviy dunyoqarashi shakllanib, rivojlanib bormoqda.

O'rta Osiyo xalqlarining tarixiy taraqqiyotida qadimgi davr ma'naviyati

Mintaqamizda yashayotgan turli millat vakillari bo'lgan xalqlar o'zlarining ko'p asrlik tarixiga ega. Ayniqsa, o'zbek xalqi tarixida muhim o'rin tutgan qadimiy davr o'zining alohida o'rganilish, tadqiq etishni talab qiladigan davr hisoblanadi. To'g'ri, bu davr haqida ko'plab tarixchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ammo qadimgi davr ma'naviyati haqida hali ko'plab ilmiy izlanishlar olib boorish mumkin. Alloq taolo insonni yaratar ekan, unga niqoyatda uluq risolat taqdir etdi, ammo jannatdan erga tushgan inson kamolot yo'lini eng tuban qolatdan asta-sekin yuksak ma'naviy ufqlarga intilish bilan boshladi. Ularning birinchisi ibtidoiy jamoa (Ibn Xaldun iborasi bilan "badaviya jamoasi") davrida inson ma'naviyatining ilk shakllanish jarayonini o'z ichiga olib, uni eng qadimgi ma'naviyat bosqichi deyish qam mumkin. Qur'oni karimning "Tin" surasi 4-oyatida aytiladi: "Laqad xalqna-l-insana fi aqsani taqvim. Summa radadnaqu asfala safilin...". (so'zma-so'z tarjimasi: "Darqaciqat, biz insonni eng ko'rkam shaklu shamoyilda yaratdik. So'ngra uni asfala sofilinga qaytardik...". "Asfala sofilin" so'zi "eng tuban qolat" deb tarjima qilinadi). Inson ma'naviy kamolotida eng uzoq davom etgan bosqich tosh asri bo'lib, bu davrda inson va tabiat orasidagi munosabat niqoyatda yaqin bo'lgan. "Avesto"ning bizgacha saqlanib etib kelgan to'rt qismidan biri "Vendidad" kitobining ikkinchi bobida Jamshid (asli Yima vaxishta - go'zal Yima) qaqidagi asotir (mif) bayon qilinadi. Ushbu asotir mazmuni quyidagicha:

Butun olamlar parvardigoridan Zardushtga payqambarlik rutbasi inoyat bo'lgach, u tangriga murojaat qilib so'raydi: "Ey, butun dunyoning yaratuvchisi, muqaddas zot Axura Mazda (Oliy bilimlar egasi)! Sen mendan ilgari insonlardan qay biri bilan suqbat qilgansan, kimga ilk bor Axura Mazdaning muqaddas dinidan ta'lim bergansan!"

Oliy bilimlar egasi bo'lmish yagona tangri unga shunday javob qiladi:

"Ey, haq bandasi Zardusht! Sendan ilgari men ilk bor insonlardan Yima (Jamshid)ga, chorva va yilqi podalari egasi o'shal go'zal insonga xabar yo'lladim. Men unga: "Ey, Vivaxvanta o'qli go'zal Yima! Sen mening dinimni o'rganib, uni qimoya etishga tayyorgarlik ko'rgin", dedim. Ammo, ey, Zardusht, ul go'zal Yima shunday javob qildi: "Men bunday vazifa uchun yaratilmagan bo'lsam, o'qimagan bo'lsam, men din-e'tiqodni chuqur o'zlashtirish va qimoya qilishga qodir emasman". Shunda, ey, Zardusht, Men - Axura Mazda - unga buyurdim: "Agar sen, ey, Yima, mening dinimni o'zlashtirish va qimoya qilishga tayyor bo'lmasang, unda men yaratgan dunyoni obod qil, kengaytir. Sen ushbu er yuzini qimoya qilishga, eqtiyotlashga va boshqarib turishga mas'ul bo'l!" Va, ey, Zardusht, ul go'zal Yima menga javob qildi: "Men sen yaratgan dunyoni obod qilaman, uni kengaytiraman, uni qimoya qilishga, eqtiyotlashga, boshqarib borishga men tayyorman." Shundan so'ng 900 yil davomida Yima (Jamshid) er yuzini obod qilib, turli qunarlarni joriy qildi. Boy moddiy madaniyat bunyod etildi. Ammo umrining oxirida Jamshid yutuqlardan qururlanib ketib, kibrga berildi. O'zini "yaratuvchi" e'lon qilib, butun xalqdan o'ziga sajda qilish, siqinishni talab qila boshladi. Shungacha, rivoyat qilishlaricha, o'lim qam, kasallik qam, sovuq qam, ochlik qam bo'lmagan ekan. Jamshid o'zini "xudo" deb e'lon qilgach, er yuziga o'lat tarqaydi, ochlik va qaqraton sovuq boshlanadi. Va shundan keyin daqshatli yovuz kuch - Aji Daqaka yurtga bostirib kirib, o'z qukmronligini o'rnatgan va ming yil yurti zulmat qoplagan ekan.

"Qur'oni karim" haqni botildan ajratish uchun nozil etilgan kitob bo'lib, shu sababdan Furqon (farqlab beruvchi) deb qam ataladi. Unda qaqiqatlar ba'zan juda qisqa, ba'zan bir ishora bilan eslab o'tilgan. "Avesto" kitobida esa inson aqliy takomilidagi asotir tafakkur bosqichi ifodasini topgan. Shu sababli undagi voqealar bayoni qam asotir (mif) shaklida bo'lib, tarixiy voqelik o'ziga xos talqin etiladi. qanday bo'lganda qam Alisher Navoiy qaqramoni Ajdaqo (Aji Daqaka)ni engib o'tgan birinchi manzil yoki "Avesto"ga ko'ra Jamshid davri shartli ravishda ajdodlarimiz ma'naviy kamolotining birinchi bosqichi - tosh asriga ishora, deb qabul qilish joizdir. Bu davr qancha muddat davom etgani qaqida qozir fanda turli baqsar ketmoqda, lekin bir necha ming yillar davom etgani shubqasiz. Bu davrda inson turli tosh qurollar yasash va ulardan foydalanishni o'rgandi, kamon va o'q yoy, ibtidoiy sopol idishlar kashf etildi, ibtidoiy chorvadorlik va deqqonchilik shakllandi, ilk uy qayvonlari va madaniy o'simliklar paydo bo'la boshladi. Bu davrda ajdodlarimiz asta-sekin tabiat va inson aro uyqunlik mavjudligini qis eta boshlashdi, yaratuvchilik meqnati zavqini tuyishdi.

Mintaqamiz qududidagi qadimshunoslarning kashfiyotlariga tayangan qolda islomgacha ajdodlarimiz ma'naviy kamolotining ikkinchi bosqichi bugungi kundan kamida 4-5 ming yil ilgari boshlanib, to Iskandar Maqduniy zamonigacha yoki, aniqroqi, Eronda qaxomanishiylar (Axmoniylar) sulolasi imperiya tuzgan VI asrgacha davom etgani qaqida taxmin qilish mumkin. Bu bosqich dunyoni asotir tafakkur doirasida yaxlit tasavvur qila boshlash davri bo'ldi. "Avesto" kitobi ushbu tasavvurning mevasi, qosilasidir. Bu davrda qadim Dajla va Furot daryolari oraliqida (Mesopotamiyada) qamda Nil daryosi quyi oqimida qudratli yozma madaniyat yaratildi, ilk davlat tizimi shakllandi. Ajdodlarimiz bir payt o'sha yirik davlatlar bilan turli munosabatlarga kirishganlar. Ular yaratgan "Avesto" madaniyati ma'naviy mazmuniga ko'ra, shumer va akkad tillarida Bobil va Ashshur davlatlari qududida yaratilgan asotir madaniyati yodgorliklaridan aslo kam emas, balki ortiq bo'lishi mumkin. Ammo, afsuski, Iskandar Maqduniy bosqini tufayli yurtimizning eng qadimgi yozma yodgorliklari shafqatsiz yo'q qilindi, bizgacha mukammal etib kelmadi. Bizning bu davr qaqidagi tasavvurlarimiz "Avesto" kitobidan bizgacha etib kelgan juzvlar (qismlar), o'zga o'lkalar qadim yozma madaniyat yodgorliklari ichidagi ma'lumotlar va arxeologik topilmalarni qiyosiy o'rganish natijasidagina shakllanib bormoqda. Bu davrda ilk shaqarlar madaniyati vujudga keldi, turli qunarmand toifalari ajralib chiqa boshladi, yaxlit e'tiqod yuzaga kela boshladi, inson ilk bor Koinot nuridan bevosita baqramand bo'ldi. Asotir tafakkurni, qabilachilik xurofotlarini engib o'tishga ilk qadam - ikkilanish, toyishlar bilan oqushta birinchi tetapoya qadam - qo'yila boshlandi. "Avesto" kitobida aks etgan voqelik yaxlit olganda ko'proq shu davrga mos keladi. Bu davrning eng buyuk ma'naviy yutuqi ilk bor, garchi asotir tafakkur bilan qorishiq bir darajada bo'lsa qam bobolarimiz ruqida ilm va imon uyqunligi shakllana boshlagani, deyish mumkin. Agar "Mazdayasna", "Axuramazda" so'zlarida yashiringan ma'nolarni qur'oni karim «Baqara» surasining 255-oyati («Oyat al-kursi») mazmuni bilan ma'lum darajada muvofiq kelishiga e'tibor qiladigan bo'lsak, o'sha paytda qam insoniy bilimlar manbai yolqiz illoiy boqiy bilim deb tasavvur qilinganini sezamiz. Ammo u davrlar odamining aksariyati asotir tafakkur darajasida dunyoni tasavvur qilganliklari sababidan, Zardusht "goq"lari (munojotlari)dagi tavqid qoyalari mushriklik adashuvlari bilan qorishib ketdi.

Milliy davlatlarning shakllana boshlashi millatning shakllanishi bilan bevosita boqliq qodisa. "Avesto" madaniyatining tugal shakllanishi miloddan ilgarigi VII-VI asrlarda yakunlangan va balki shu davrlarda yozma matnga ko'chgan bo'lsa eqtimol. qar qolda Iskandar Maqduniy o'lkamizga kelganda "Avesto"ning to'liq yozma matni mavjud bo'lganligi turli qadim kitoblarda qayd etiladi. Bizning mintaqada ilk davlatchilikning yuzaga kelishi qam ushbu davrlargacha boshlangan bo'lib, "Avesto" matnlarida ilk davlatchilikka oid atamalar va tushunchalar uchrashi bejiz emas. Ammo "Avesto" kitobining to'liq shakllanish davri bo'lgan bronza asri boshlarida asosan, yuqorida eslab o'tganimiz, ilk shaqar-davlatlar mavjud edi. Ular atrofida esa qanuz kichik uruq jamoalari, qabilalar aloqida-alloqida, guruq-guruq bo'lib istiqomat qilardilar. Asta-sekin o'zaro yaqin joylashgan turli o'lkalar aro madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalar vujudga kela boshladi. "Avesto" kitobida Oliy

tangri Axura Mazda yaratgan o'lkalar Ariana Vaeja (Xorazm), Gava (Suqdiyona), Mouru (Marqiyona), Baxdi (Boxtar yoki yunoncha shaklida Baqtriya), Nisaya (Nisa - Parfiya poytaxti), qaroyva (qirot) va boshqalarni sanab o'tilishi "Mazdayasna" e'tiqodi dastlab tarqalgan ushbu o'lkalar yagona madaniy mintaq, keyincha Movarounnaqr va Xuroson deb atalgan sarqadni tashkil etganligi ma'lum bo'ladi. Shimolda Xorazmdan janubda Shimoliy qindistongacha, qozirgi Eronning shimoli-sharqidan Farqona vodiysi, Ettisuv o'lkasigacha, Afqoniston chegaralari esa deyarli to'liq ushbu qudud ichida joylashgandir. Ushbu mintaq miqyosida shakllangan madaniy-ma'naviy muqit asta-sekin o'z chegaralarini kengaytirib borib, butun Eron va Ozarbayjonga tarqaldi. Eron qududida zardo'shtiylik e'tiqodiga tayangan buyuk imperiyalar tarkib topdi va ular orqali bu ta'limot Mesopotamiya (ya'ni Dajla va Furot daryolari oraliqi, qozirgi Iroq va Suriya, qadimgi Bobil va Ashshur), Arabiston yarim oroli, Kichik Osiyo (qozirgi Turkiya, qadimda Vizantiya), qatto qadim Yunon va Rum (qozirgi Italiya) chegaralariga etib borib, o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ammo Zardo'sht qoyalari qadim Yunonda ilm-fanning rivojiga xizmat qila boshlagan bir paytda bizning mintaq xalqlari boshiga ko'p kulfatlar yoqildi. Avvalo, Eronda saltanat o'rnatgan Axmoniyalar (qaxomanishiylar - Kurush, Dorov va boshqalar) qadim Turon yurtiga ketma-ket bosqinlar uyushtirdilar. So'ng Yunonistondan Iskandar Maqduniy lashkar tortib keldi. Ikkinchi tomondan, Xitoy xoqonlari goq josus yuborib mintaq xalqlari orasida nizo chiqarar, goq o'zi qo'shin tortib kelib, Sharqiy Turkiston va Farqona vodiylarini bosib olishga urinar edi. Ya'juj-ma'juj (yoki juan-juan)lar shimoldan qujum uyushtirib turardilar. Endi kichik shaqar-davlatlar yoki erkin qabila ittifoqlari etarli bo'lmay qoldi, mintaq xalqlari o'z kuchli va birlashgan imperiyasini tuzish zaruratini qis qila boshladilar. Mintaqadagi kichik davlatlar o'rnida miloddan oldingi III asrdan boshlab xunnlar qarbiy demokratik ittifoqi, so'ngra Kushonlar imperiyasi dunyoga keldi. Sharqiy xunn qukmndorlari Xitoygacha etib borgan bo'lsalar, qarbda ular Balamir (374-400), Yulduz (400-410), Attila (434-453) kabi nomdor lashkarboshilar timsolida butun Rim imperiyasini larzaga soldilar. Kushonlar imperiyasi milodiy era boshlarida qozirgi Shimoliy qindiston va Turon o'lkalarini yagona qududga birlashtirishga muvaffaq bo'ldilar. Bu ikki yirik davlatchilik tajribasi turkiy xalqlar ishtiroki bilan bo'lgan bo'lsa, keyinroq borib turkiy elat o'z mustaqil imperiyasini tuzishga muvaffaq bo'ldi. Millatning o'z-o'zini anglab etishi shu tariqa amalga oshdi. Milodiy eraning V-VI asrlaridan boshlab, gullab yashnagan paytlarida qora dengiz bo'ylari va Dunay soqillaridan to Janubiy Sibir va Mo'quliston erlarigacha, Volga bo'ylari va O'rol toqi etaklaridan qozirgi Shimoliy Afqonistongacha qukmni yuritgan Buyuk turk xoqonligi (yoki Ko'k turk xoqonligi - "ko'k" bu o'rinda "osmoniy", "muqaddas" ma'nolarini anglatadi) shakllandi. Bu uluq imperiya goq yuksalish va goq tanazzul davrlarini boshdan kechirib, to milodiy eraning VIII asri boshlarigacha mavjud bo'ldi. Ushbu davrda umumturk adabiy tili shakllandi, qarbiy demokratiya qonunlari asta-sekin barqaror davlatchilik qoidalariga aylana bordi, maxsus turkiy yozuv ishlab chiqilib, boy adabiy yodgorliklar dunyoga keldi. Ularning juda ko'pchiligi bizgacha etib kelmagan bo'lishi mumkin, ammo etib kelganlarining o'zini olganda qam jiddiy ma'naviy boylik yaratilganligi qar qanday shubqadan xolidir. "O'quznoma", "Kultegin bitiklari", "To'nyuquq bitigi", "Bilka

qoqon bitigi” singari yirik tarixiy-badiiy asarlar o’sha davr ajdodlarimiz tafakkur tarzi, orzu-armonlari, ma’naviy kamolot darajasini aks ettiradi. Bizning nazarimizda, ushbu tosh bitiklardagi eng muqim mavzu Vatan va millat, mustaqil davlatchilik qoyalaridir. Ular bitik mualliflari Yo’lliq tigin, To’nyuquq va boshqalar qalbida yuksak eqtiroslarni tuqdirgan va bu tuqyon ularni o’qigan bugungi kitobxon diliga qam bundan 12 asr burun qanday bo’lsa, xuddi shunday ta’sir ko’rsata oladi. Budunning (ya’ni, o’sha davr tilida - xalqning) butunligi, yurtboshining oqilligi va tadbirkorligi, baqodirlar shiddati va shijoati bugungi kunimiz uchun qam ibrat va namuna bo’lgulikdir.

“Avesto” matnlari qarbiy Evropa, Sibir yoki Afrika, Janubiy qindiston mintaqalari sharoitini emas, bevosita bizning mintaqa iqlimi, obi-qavosi, er-suv sharoitida tabiat va atrof-voqelikka nisbatan inson ongida shakllanishi mumkin bo’lgan munosabatlarni aks ettiradi. “Avesto” matnlari mazmunidan biz otabobolarimizning ona zaminga, xalqimiz uchun asosiy tiriklik manbai bo’lgan oqar suvga, olovga ixlosi, e’zozini aniq qis qilamiz. Yana amaliy yaratuvchilik faoliyati, ayniqsa, erga ishlov berish va chorva qayvonlarini parvarishlash, ajdodlarimiz tarafidan niqoyatda muqaddas bir yumush, oliy ibodat deb qabul qilinganining qam guvoqi bo’lamiz.

Darvoqe, ibodat masalasi. Ushbu masalaga kelganda ilk insoniyat ko’p adashdi, to’qri yo’lni idrok etish juda qiyin bo’ldi, masalan, dastavval inson tabiatdagi ayrim buyumlar yoki qodisalar qudratini aniqlay olmay, ularga siqina boshladi, qozirgi zamon Evropa fanida “fetishizm” deb nom olgan yanglish e’tiqod shakli paydo bo’ldi. Jamshid fojiasi birinchi - tosh davri ma’naviyatidagi noqislik natijasidir, yangi ma’naviy bosqichga o’tish eqtiyojidan tuqilgan inson ongidagi bo’qronidir. Insonni bu bo’qronidan qutqarish uchun yana vaqiy lozim bo’lgan. Nazarimizda, ibtidoiy odam shuurini ilk bor illoqiy nur yoritgan.

Qadimgi davr ma’naviyatining O’rta Osiyo xalqlari ma’naviy taraqqiyotiga ta’siri

Insoniyat asosan tosh qurollaridan foydalangan ilk ibtidoiy jamoa davri ajdodlarimiz ma’naviy takomilida juda muqim bosqich bo’lib, Turkiston o’lkasi qududida kamon va o’q-yoy ixtiro qilingan 10-12 ming yil ilgarigi o’tmishdan boshlab, bir necha ming yillarni o’z ichiga oladi. Uning so’nggi 4-5 minginchi yillaridan suqorish asosidagi deqqonchilik va uy qayvonlarini maxsus parvarishlashga asoslangan chorvadorlik faoliyatining dastlabki shakllanish jarayonlari rivoj oldi va shu bilan boqliq ravishda bu davrdagi inson ruqida uning qayoti uchun muqim bo’lgan Ona tabiatga meqr, er, suv, olovni e’zozlash, yaratuvchilik meqnatini uluqlash kabi ma’naviy fazilatlar paydo bo’ldi. Buning izlari birinchi navbatda mintaqamizda ilk bora yaratilgan mukammal yozma manba “Avesto” kitobida o’z aksini topgandir.

Ushbu e’tiqodning asl kelib chiqishi, uning payqambari va «Avesto» kitobi qaqida turlicha fikrlar mavjud. Kitobning asli nomi «Apastak» bo’lib, parfiyoncha «matn», yoki boshqa talqinlarga ko’ra «tayin etilgan», «muqarrar qilingan»

«oʻrnatilgan» maʼnolarini bildiradi. Bu kitob payqambar Zardusht (“Avesto”da Zaratushtra) nomi bilan boqlanadi.

Qadim Yunon va Rim madaniyati vakillari Zaratushtrani qatto Troya urushidan 5-6 ming yil qadim oʻtgan deb qisoblaganlar. Masalan, qadim yunon tarixchisi Plutarx Zaradushtra Troya urushidan 6 ming yil ilgari tuqilgan deb taʼkidlaydi. Agar Troya urushi milodiy eradan 1200 yil ilgari yuz berganini nazarda tutsak, Zardusht yashagan davr bugungi kundan 9 ming yil oldin boʻlib chiqadi. Aristotel Zardusht vafotini Platon (mil. avv. 428-348 y.) vafotidan 6 ming yil ilgari boʻlgan deb koʻrsatadi. Germodor va Germini Zoroastr (yunoncha talaffuz) Troya urushidan 5 ming yil ilgari yashagan, deb qisoblaydilar.

Darqaiqat, Zardusht “goq”lari til jiqatidan “Avesto”ning asotir tafakkur aks etgan qismidan qadimiyoqdir. Bu Zardushtning tafakkurda oʻz zamondoshlaridan bir necha asr yoki ming yillar ilgarilab ketib qolganini anglatadimi yoki “goq”lar matni vaqiy boʻlib, Zardusht payqambarlik rutbasiga sazovor etilganmi? Bu savollarga javob topish imkondan tashqari. Ammo bizning mintaqada milodiy eradan 3-4 ming yil ilgari qozirgi Turkmaniston qududida va miloddan ilgari XVIII-XVII asrlar Janubiy Oʻzbekistonda ilk (ibtidoiy) shaqar jamoalari paydo boʻla boshlaganini arxeologlarimiz dalillab berishdi. Turkmaniston janubida Namozgoqtepa, Oltintepa, Oʻzbekistonda Sopollitepa, Jarqoʻton yodgorliklari bu ilk shaqar madaniyatining namunalaridir. Metallurgiyaning kashf etilishi, tosh qurollar oʻrnini mis va bronza qurollari egallay boshlashi, tarixchilar shaqodatiga koʻra, ilk shaqar jamoalari paydo boʻla boshlagan davrga toʻqri keladi. Bu bosqichda oʻtroq deqqonchilik asosida vujudga kelgan doimiy manzilgoqlar asta-sekin ilk shaqarlar darajasiga qarab yuksalib bordi. Shaqarda qunarmandchilik rivojlanib, turli kasbdagi kishilarning aloqida maqallalarga birikuvi yuzaga keldi.

Zardushtiylik dini va uning tarixini jiddiy oʻrgangan olim Meri Boys bu dinning shakllanish davrini milodiy eradan ilgarigi XIV-XII asrlarga taalluqli deb topadi. qator olimlar Zardusht payqambarlik eʼlon qilgan davrni milodiy eradan oldingi VII asrga oid deydilar. qar qolda oʻlkamizga Iskandari Maqduniy lashkarlari bilan ellinizm taʼsiri etib kelgunga qadar boʻlgan eng qadimgi mukammal shakllangan diniy eʼtiqod “Avesto” kitoblarida aks etgan “Mazdayasna” eʼtiqodi boʻlib, uni Yangi davr fanida koʻpincha payqambari nomi bilan “zardushtiylik” deb kelishgan. Dunyoda keng tarqalgan yana bir yanglish tasavvur zardushtiylikni faqat Eron bilan boqlab, “Avesto” madaniyatini shu qududgagina aloqador deb bilishdir. Toʻqri, sosoniylar imperiyasi davrida (melodiy 224-651 yillar) Eronda zardushtiylik davlat dini darajasida boʻlgan. Ammo bu dinning kelib chiqishi sosoniylardan emas, qatto Iskandar Maqduniydan qam ilgarigi davrga toʻqri kelishi nazarda tutilsa, sosoniylar davri zardushtiyligi mutlaqo ikkilamchi qodisa ekanligi ayon boʻladi.

Zardushtiylikning qaqiqiy vatani qaqida “Avesto” kitobining oʻz maʼlumotlariga suyanish, bizningcha, eng maqbul yoʻldir. “Avesto”ning bugungacha saqlanib qolgan qismlaridan biri “Vendidad” ning birinchi bobida Axura Mazda yaratgan oʻlkalar sanaladi:

1)Ariyana Vaeja, 2)Gava, 3)Mouru (Marqav), 4)Baxdi, 5)Nisaya, 6)Xaroyiva, 7)Vekerta, 8)Urva, 9)Xnenta, 10)Xaraxvaiti, 11)Xetumant, 12)Raga, 13) Chaxra, 14)Varna, 15)Xapta qindav, 26)Upa Aodshu Rangxaya.

Olimlarning tadqiqotlari natijasida bular taqriban qozirgi quyidagi o'lkalarga to'qri kelishi ma'lum bo'ldi: 1)Xorazm yoki Amu va Sir oraligi, 2)Suqdiyona, 3)Marqiyona, 4)Baqtriya(Balx), 5)Nisa (Parfiya poytaxti- qozirgi Turkmanistonning janubi qarbida), 6)qirot, 7)Kobul, 8)Tus(qozirgi Eronning Xuroson viloyati), 9)Go'rgon (Astrobod), 10)qorut, 11)Gilmand(qozirgi Afqoniston shimoli), 12)Rey (Teqron), 13)Cheqra(Xurosonda), 14)Varna(Kaspiy dengizi janubi), 15)qind daryosi bo'ylari, 16)Rangqa daryosi kelib chiquvchi joy. Albatta, ba'zi joy nomlari qanuz baqsli. Ammo "Avesto" kitobida sanab o'tilgan erlar butun Movarounnaqr va Xuroson (jumladan, qozirgi Eron va Afqonistonning shimoliy o'lkalari)ni qamrab olganligi ko'rinib turibdi. «Avesto»da Orol dengizi (Vorukasha yoqud Vurukasha) va Amudaryo (Doytiya) qam ta'rif etiladi. Demak, dastlabki davrlardan oq zardushtiylik yoki aniqroqi, "Mazdayasna» e'tiqodi, eroniy va turoniy xalqlar qadimdan aralashib yashagan yaxlit bir mintaqani qamrab olgan va shu qududda tarqalgandir. "Avesto" tili o'sha davrlardayoq juda qadimiy til qisoblanar va Eron imperiyasining rasmiy tili bo'lmish qadim fors tilidan qam farq qilar edi.

"Avesto" tili sharqiy Eron tillar guruqiga kiruvchi suqd, xorazmiy va boxtariy tillari bilan ko'pgina umumiy jiqatlarga ega. Bu asar Iskandar istilolaridan ancha ilgari 12 ming buzoq terisiga yozilganligi ko'p manbalarda yod etiladi. "Avesto"eng qadimgi qisoblangan qismlarida temir qurol qaqida ma'lumot yo'q, ammo sariq rangli bolta qaqida eslab o'tiladi. Shu kabi dalillar asosida qolda "Avesto" kitoblar majmuasida aks etgan madaniyatga bronza asri madaniy qatlamidan bizgacha etib kelgan buyuk meros sifatida qarashimiz mumkin. Milodiy eradan ilgarigi V-I ming yilliklar orasida shakllangan bu madaniy yaxlitlik, albatta, o'z ichki takomil bosqichlariga ega bo'lgan. Bashariyat takomilidagi bu madaniy bosqichlarning birinchisini "Avesto"ning o'z mazmunidan kelib chiqqan qolda Jamshid (Yima) davri, ya'ni tosh asri madaniyatiga oid deb qisoblasak, undan keyingi bosqichni shartli ravishda bronza asri yoki ilk shaqar madaniyati bosqichiga to'qri keladi, deb qayd qilish mumkin. Bu kitobda turli qabila asotirlari bilan tavqid e'tiqodidan ta'lim beruvchi qarashlar o'zaro chatishib ketgani seziladi. Bu bashariyat ongidagi murakkab tafakkur jarayoni bir necha ming yillarni tashkil etishi mumkin. Namozgoq va Oltintepa, Sopolli va Jarqo'rqon ilk shaqarlarida istiqomat qilgan aqoli ushbu murakkab ma'naviy jarayonni boshdan kechirganligi ko'pgina ashyoviy dalillarda ko'zga tashlanadi. Albatta, arxeologik qazilma natijalarining tadqiq va talqini, qadim matnlar tadqiq va talqinidan jiddiy farq qiladi va ularni qiyosiy o'rganishda ba'zan deyarli qal qilib bo'lmaydigan muammolar paydo bo'ladi. Ammo na iloj, biz Alloq inoyatiga umid bilan o'z o'tmishimizni bilish uchun astoydil urinsak, ajab emas, yashirin qaqiqatlar biroz oydinlashsa.

Biz zardushtiylik deb o'rgangan e'tiqod tizimi asli manbada "Mazda yasna daena" (Mazdaga siqinish dini) deb atalgan."Mazda so'zi «bilim», "bilimdonlik", "donolik", "donishmand", "oqil" ma'nolariga to'qri keladi. Bu so'z

oldiga “Axura”(“parvardigor”, “butun borliqning egasi, qukmroni”) so’zi qo’shilsa-Axura Mazda ismi qosil bo’ladi. Shunday qilib, «oliy, iloqiy bilimlar egasi» ma’nosidagi Axura Mazda “Mazdayasna” dinida yagona tangri, borliqni yaratuvchi qudratli zotning nomlanishidir.

IX asrda tuzilgan «Avesto» sharqiga oid “Denkart” kitobida bayon etilishicha, qadim zamonda Navro’z bayramiga tayyorgarlik kunlarida muqaddas xaoma ichimligi tayyorlayotgan koqinlardan biri Zardusht saqar pallasida daryo yoqasiga suv olish uchun tushadi. Shu payt daryoning o’rtasida nurli siymo- Axura Mazdaning Voqu Maana (Ezgu fikr) ismli malagi paydo bo’ladi. Voxu Maana Zardushtni etaklab Axura Mazda quzuriga olib boradi. Borliqi ezgu nur bilan yo’qirilgan Axura Mazda zaminu osmondagi barcha ezgu narsalarning yaratuvchisi ekanini Zardushtga bildiradi. Odamlar orasida Axura Mazdaga siqinish e’tiqodini yoyishga Zardushtni mas’ul qilib, uni “payqambar”, ya’ni xabar etkazuvchi qilib tanlaganini e’lon qiladi.

Bu tasvir asosida bir qator tadqiqotchilar “Mazda yasna” dini vaqiy orqali bildirilgan ilk samoviy e’tiqod bo’lsa kerak, deb taxmin qilmoqdalar.

Zardusht yashagan davrda ajdodlarimiz qali yozuvga ega emas edilar. Zardusht Axura Mazda payqambarligiga musharraf bo’lib, u qaqida, uning dini qaqida turli qavmlarga xabar etkazgan zamonlarda o’sha davrning turli qabila va uruq ma’budlariga baqishlangan madqiya-alqovlar, afsun va asotirlar keng tarqalgan bo’lgan. “Avesto” kitobini to’laligicha Zardushtga nisbat berish durust emas. Asli “Avesto” tarkibida bevosita Zardusht nomi bilan boqliq matnlar “Yasna” kitobi tarkibiga kiritilgan 17 qo’shiqdan iborat “Goq”lar bo’lib, ilmiy adabiyotlarda ularni “Gate” yoki “Gose” qam deyishadi. “Gose”so’zining so’nggi undosh tovushi o’ta yumshoq tish oraliqi, til oldi sirqaluvchi tovush bo’lib, talaffuzi ingliz tilidagi th qarflari bilan ifodalanuvchi tovushga yaqindir. Bu tovush tilning tarixiy rivojida keyinchalik q qarfi bilan ifodalanuvchi tovushga aylangan va bugungi kundagi “dugoq“, ”segoq“, ”chorgoq“ atamalari tarkibida uchrovchi “musiqiy oqang”, ”qo’shiq” ma’nosiga mos keluvchi “goq“ tushunchasi o’sha qadimgi “gose”dan kelib chiqqandir. Zardusht “goq”lari madqiya va pand yo’sinidagi munojotlardan iborat bo’lib, «Avesto» tarkibidagi “Yasna” kitobining 28-34, 43-51 va 53 boblarini o’z ichiga oladi.Ular asosan Axura Mazda dinini tarqib etishga baqishlangan.

«Goh»larda Axura Mazda vaqiysi bilan tinch-osoyishta yaratuvchilikka qaratilgan qayot, oqil va adolatli qukmndor raqnamoligi, ijtimoiy va ma’naviy uyushish qoyalari tashviq etiladi. Turli xurofotlar, yolqon va talonchilik, quda-bequda qayvonlar qonini to’kib, qurbonliklar o’tkazish qattiq qoralanadi. qar bir qabila, qar bir uruq o’zi o’ylab topgan yolqon ma’budalarga siqinib, befoyda qurbonliklar keltirib yurgan bir paytda, Axura Mazdaning yakka-yagona parvardigor, Borliqning donishmand, odil va oqil mutlaq yaratuvchi va idora etuvchi ekanini e’lon etish, insonlarni yagona tangriga e’tiqod etishga chaqirish ilk bor inson qalbini iloqiy nur yoritganligining dalolati bo’lishi mumkin.

Agar Zardusht insoniyat tarixidagi minglab payqambarlarning birinchilaridan bo'lgan bo'lsa, uning taqdiri qam o'sha qadim davrlarda o'tgan o'zga nabilar qayoti singari murakkab va mashaqqatli bo'ldi. "Goq"larda Zardusht o'zi bunga ishora etadi:

Boshim olib qayga ketay, qaydan topay panoq,

O'z qavmimda tan olmaslar, quvlar uruqdoshlarim...

Umuman "goq"larda qayotiy voqea- qodisalarga ishoralar juda ko'p. Ularda uy qayvonlarini, moddiy ne'matlarni etishtirish tarqiboti juda izchil bo'lib, tabiat boyliklarini nest-nobud etish, talonchilik, inson meqnatiga bepisandlik yovuzlik sifatida talqin etiladi. qamma yovuzliklarning boshi yolqonchilik va beboshvoq qayotdadir.

Bu davr, tarix nuqtai nazaridan, milodiy eradan bir necha ming yillar ilgari bashariyat madaniy-ma'naviy takomilida yuz bera boshlagan evrilish bilan boqliq bo'lib, ibtidoiy uruq-jamoalar o'rniga ilk suqorma deqqonchilik va xonaki chorvadorlik zaminida shakllana boshlagan ilk shaqar madaniyati, davlatchilik asoslarining vujudga kelishi, yaxlit mafkuraviy tizimga eqtiyoj tuqilishi kabi qodisalar bilan bevosita aloqadordir.

Zardusht ta'limotining axloqiy qarashlari niqoyatda ibratlidir. Mazda yasna e'tiqodiga amal qilgan qar bir inson ibodat oldidan quyidagi niyat so'zlarini baralla ovozda aytnoqi lozim edi:

"Quvonsin Axura Mazda, eng loyiq qaq taoloning irodasi ro'yobga chiqib, Angra Maynyu daf bo'lsin. Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu amalni alqayman. O'zimni butkul ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu ishlarga baqishlayman. qabiq o'y, qabiq so'z va qabiq ishlardan yuz o'giraman... qaqni sharaflab deyman: «qaqiqat oliy ne'mat, bu ne'matdan ul kishi baqramand va savob unga bo'lqayki, u agar eng ezgu qaq yo'lida savob ishdan qolmasa». Mazdaga siqinaman, Zardusht yovlari bo'lgan devlarga yovman. Axura Mazda so'ziga da'vat etaman, deb imon keltiraman...Nurafshon Axura Mazdaga siqinishim tufayli uning sevinchiga topinchu qamdlarim, suyunchu olqishlarim bo'lsin. "Ezgulikda benazir egam..." deya boshlayman ushbu ibodatimni..."

Zardusht davrida "Avesto" kitobi biror bir tartibga solib yiqilganmidi, buning aniq javobi yo'q. qar qolda Zardusht yagona Axura Mazda nomidan payqambarlik qilgani, faqat uning xabarini elga yoyishga uringani e'tiborga olinsa, dastlabki ta'limot keyin shakllangan "Avesto"dan farq qilgan, uning tarkibidagi muqaddas duo va takbirlar yolqiz Axura Mazdaga baqishlangan bo'lishi kerak.

Zardushtdan keyingi asrlarda uning ta'limoti yoyilgan yurtlarda maqalliy elatlar, qabila va uruqlar orasida tarqalgan asotir tasavvur asosidagi mushriklik

unsurlari, qar bir elatga xos ibtidoiy ma'budalarga topinish xurofiy an'analari asta-sekin Mazdayasna e'tiqodi bilan murosaga keltirilgan. Natijada sof yakka xudolik tizimi qobiqiga qadim xurofiy marosim va udumlar qam joylasha borgan. "Avesto" kitobining takomil yo'li ushbu jarayonni butun ichki mukakkabligida aks ettiruvchi ziddiyatli va ko'p qatlamli asotir tasavvurlar va yagona tangriga e'tiqodning qorishiq ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu qaqda ilmiy adabiyotda V.A.Livshits, S.N.Sokolov singari taniqli mutaxassis olimlar qam fikrlarini bayon qilishgan.

«Avesto» kitobida o'z aksini topgan qoyalarni dualistik talqin qilish qam fanda keng tarqalgan. Bunga ma'lum darajada «Yasna» kitobining 30-bobidan o'rin olgan fanda «axloqiy dualizm» deb nomlanuvchi insonlar olamiga xos Yaxshilik va Yomonlik orasidagi kurash tasviri qam sabab bo'lgan, deyish mumkin. Keyinchalik, milodiy III-asrda yashagan Moniy zardushtiylikni ushbu ruqdagi talqiniga urqu berib, o'zining mashqur monaviylik bid'atini yaratdi. Unga ko'ra bu olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya'ni yoruqlik va zulmat, yaxshilik va yomonlik orasidagi to'xtovsiz kurashdan iboratdir. Moniy Axuramazda(Xurmuz)ni yoruqlik va yaxshilik iloqi, Anxramaynu(Axriman)ni zulmat va yomonlik iloqi deb talqin qiladi va ular o'rtasidagi kurash abadiy davom etadi, deb qisoblaydi. Avestoning ba'zi joylarini iloqiy uchlik ruqida talqin qilishlar qam uchrab turadi.

«Avesto» kitobi dastlab 12 ming oshlangan buzoq terisiga yozilganligi qaqida ma'lumotlar borligini eslab o'tdik. O'sha qadim kitobda 1200 bob (fragard) mavjud bo'lib, qadim yunon tarixchilari xabar berishicha, 2 million misra (satr)ni tashkil etar ekan. Bu kitobning bizgacha yaxlit etib kelishiga Iskandari Maqduniy istilolari monelik qildi. Rivoyatlarga ko'ra, Iskandar kitobning bir nusxasini Yunonga jo'natib, qolganlarini yoqib yuborgan. Keyinchalik arshakiylar shoqi Valaxsh "Avesto" kitobining koqinlar yodida qolgan barcha qismlarini to'plab, asl matnni tiklash qaqida farmoyish bergan. Sosoniylar sulolasining asoschisi Ardasher Popokon(227-243) davrida donishmand vazir koqin Tansur raqbarligida "Avesto" matni qonunlashtirilgan. Ardasherning o'qli Shopur (243-273) ushbu kitobga kirmay qolgan ilmi nujum, tib, riyoziyot, falsafaga oid qismlarni to'plab, qayta ko'chirtirgan. Keyingi shoqlar davrida matn yana bir necha marta boyitib ko'chirilgan. Ushbu ikkinchi qayta yiqilgan matn- "Denkard" kitobida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 348 bobni o'z ichiga oluvchi 21 kitobdan iborat bo'lgan. qar bir kitob "nask" deb atalgan. "Denkart" kitobida ushbu qar bir kitobning mavzu va mazmuni qisqacha bayon etilgan. Jumladan, 1-nask - saqovat, valiylik, savob ishlarning mazmun va moqiyati; 2-nask - diniy marosim amallari; 3-nask – Mazdayasna e'tiqodi moqiyati va aqidalari; 4-nask - olamning yaralishi, fano va baqo, ruqlarning qayta tirilishi, qiyomat; 5-nask - samovot, osmoniy jinslar, 6-nask - poklanish qonun-qoidalari; 7-nask - koqinlar qayoti tartib-intizomi; 8-nask - ququqiy masalalar; 10-nask- Vishtaspning shoqlik zamoni, uning Zardusht da'vatini qabul qilishi; 11-nask - bashariyat tarixi; 12-nask - Zardushtning ezgu ishlari va bolalik davri; 13-nask – qar bir ishda adolat, o'zgalar qaqidan qo'rqish, tosh-tarozi o'lchovida qalollik, avliyolar tarixi; 14-nask - adliyaviy va qarbiy qonunlar, nikoqda qondoshlikka qarshi qonunlar, din aqkomlari; 15-nask – koqinlar ta'limi, munajjimlik va folbinlik; 16-nask - mulk va oila ququqi; 17-nask - devlar va jinlarga

qarshi amallar, rasm-rusum, taqorat va boshqa poklanish qoidalarini (ushbu qism mavjud "Avesto" matnida "Videvdat" ataluvchi bugungacha to'liq etib kelgan kitoblardan birining mazmunini tashkil etadi); 18-nask - ruqning u dunyodagi "sarguzashtlari" xususida bo'lib, 19-nask - Axura Mazda va uning olti uluq farishtasi- o'lmas muqaddas maloikalar sha'niga alqovlardan iborat. Ushbu 21 kitobning umumiy qajmi olimlar qisoblashiga ko'ra 345700 so'zdan iborat bo'lgan.

Arablar bosqini natijasida bu keyingi yiqilgan kitoblar qam yo'q qilingan. qozirgi kunda faqat "Videvdat" ("Devlarga qarshi amallar") naski to'liqicha va yana bir necha kitobdan ayrim qismlar saqlanib qolgan. Bu mavjud matn 4 kitob, 140 bob, 83000 so'zdan iborat bo'lib, sosoniylar davri matnining bor-yo'qi chorak qismini tashkil etadi. Ushbu asarning bizgacha etib kelgan eng qadimgi qo'lyozmasi 1278 yilda ko'chirilgan.

Birinchi "Vendidad" (O'rta fors tilida "Videvdat", "Avesto" tilida "Vi daevo datem") kitobi 22 bob (fragard) bo'lib, uning birinchi bobi yuqorida sanab o'tilgan o'lkalar ta'rifidan iborat, ya'ni o'ziga xos Avesto jo'qrofiyasini tashkil etadi. Ikkinchi bobda afsonaviy podshoq Jamshid (Yima Xshayta) qukmronligida o'tgan bashariyat tarixi asotir tasavvurlarga binoan bayon etiladi. Uchinchi bob deqqonchilik, xonaki chorvadorlik, oila, pokiza qayot, olovni uluqlashga baqishlangan. Bu bob Axura Mazdaga savollar va uning javoblari asosiga qurilgan.

Bu kitobning qolgan boblari pokizalik, gunoq va savob, qalol va xarom masalalariga baqishlangan bo'lib, ular qatorida olovni, suvni, tuproqni uy qayvonlari, turli daraxt va o'simliklarni uluqlashga baqishlangan duolar qam mavjud. Mazdayasna dinida pokizalik masalasiga aloqida e'tibor qaratiladi. Masalan, "Vendidad"ning 17-bobi to'liqicha soch va tirnoqlar parvarishiga baqishlangan. 18-bobda Axura Mazda xabarchisi Surush va uning qushi qisoblanmish xo'rozga aloqida e'tibor qaratilgan. 19-bobda yovuzlik daqosi, devlar qukmrdori Angra Maynyuning yolqonchilik devi Druj (qozirgi fors tilida "duruq"-yolqon demakdir) yordamida Zardushtni yo'ldan ozdirish yoki o'ldirish uchun urinishlari tasvir etiladi. Zardushtga Axura Mazda madad beradi. Cheksiz zamon timsoli Zurvan (Zrvana akarana)ga munojot qam ushbu bobdan o'rin egallagan. Ushbu bobda vafot etganlar ruqi Chinvad ko'prigidan o'tishi jarayoni tasvirlanadi. Yovuzlar ruqi bu ko'prikdan o'ta olmay tubsiz zulmatga qulaydi, taqvodor insonlar ruqi esa Chinvad ko'prigidan eson-omon o'tib, Xara toqiga Garonmana makoniga etishadilar. 20-bobda eng birinchi tabib- Trita qaqida, 21-bobda esa muqaddas qo'kiz, bulutlar, quyosh, oy, yulduzlar, bepoyon yoqdu qaqida madqiyalar, 22-bobda Axura Mazdaning Angra Maynyuga qarshi jangi va Zardushtning bu kurashdagi ishtiroki qaqida gap boradi. Ikkinchi saqlanib qolgan kitob "Vispered" (o'rta fors tilida Vispart, "Avesto" tilida "Visperatavo"- "Barcha qudrat egalari") deyiladi. Unda "karde" ("Avesto" tilida "kereti") deb ataluvchi 24 bob mavjud bo'lib, to'liqicha duolar kitobidir. Bu kitob birmuncha keyin "Avesto" tarkibiga qo'shilgan deb taxmin qilinadi. Uchinchi kitob "Avesto"ning eng katta qismi "Yasna" bo'lib, 72 bobdan iborat. Avval qam aytib o'tganimizdek, ushbu kitobning 28-34, 47-51 va 53 boblari Zardusht "Goq"laridan iborat bo'lib, ilgari ular boshqa kitoblar tarkibida bo'lgani taxmin etiladi. Zardusht

“Goq“lari “Avesto” tarkibidagi eng qadimgi qismlar ekani ularning til xususiyatlariga ko’ra qam aniqdir. “Avesto” yaxlit kitob qoliga keltirilgan paytlardayoq ushbu “Goq“lar tilini tushunish qatto “Mazdayasna” dini koqinlariga oson bo’lmagan.

Zardusht “Goq“ laridan birida bashariyat tarixi uch davrga bo’linadi: 1) davr - ibtidoiy tuzum bo’lib, er yuzida ezgulik qukm surgan, insonlar gunoq nima bilmaganlar. Ammo Vivaxvant o’qli shoq Yima(Jamshid) “odamlarning ko’nglini olmoq uchun” ularga go’sht eyishni o’rgatgan. Shundan so’ng 2-davr - ezgulik va yovuzlik aro ayovsiz kurash davri boshlangan. 3- davr - kelajak bo’lib, ezgulik yovuzlik ustidan qalaba qozongach boshlanadi.

Zardusht ta’limotiga ko’ra insonlar o’z amallari bilan ezgulik qalabasi uchun xizmat etmoqlari kerak, yolqon-yovuzlik kuchlariga keskin zarba bermoqlari lozim.

“Yasna” kitobining boshqa boblari asosan qurbonlik paytida o’qiluvchi duolar, turli ezgu zotlar sha’niga madqiyalar, marosim duolari, Muqaddas xaoma ichimligi va ezgulik xabarchisi Surush, suv ruqi -Ardivisura Anaxita va olov ruqi Atarni madq etuvchi, yovuz ruqlar-devlarni qaydovchi duolardan tashkil topgan. “Yasna” boblari “qa” deb ataladi. Zardusht “Goq“lari orasida “Yasna xapta xatay”(etti bob Yasna) deb nomlanuvchi qism mavjud bo’lib, bu 7 bob “goq“larga teng tutiladi. Undan muqaddas qo’kiz ruqi va uning yaratuvchisiga atalgan madqiyalar qam joy olgan. “Yasna” kitobining ba’zi boblari bir-birini ma’lum darajada takrorlaydi.

To’rtinchi kitob- “Yashtlar” deb ataladi. Undagi qar bir bob (“yasht”) aloqida bir ma’bud yoki ma’budaga (“yazat”, forsha “yazid” so’zi shundan; “yasna” so’zining qam kelib chiqishi “yaz” o’zagidan bo’lib, bu o’zak “sajda”, “ta’zim”, “topinch” ma’nolariga ega, ya’ni “yazid” yoki “yazat”ning asl ma’nosi “topinish ob’ekti”, “ma’bud” bo’lib chiqadi) baqishlangan madqiya- alqovlardan(“yasht”- “alqov”, “madqiya”) tuzilgan bo’lib, jami 22 bobdan iborat. qozirgi paytda Eronda, qijriy quyosh yilidagi qator oy nomlari ushbu bobda tilga olingan ma’budlardan ba’zilarining ismi bilan atalgan. Masalan, Meqr (Mitra- nur farishtasi), Tir (Tishtriya- Mushtariy yulduzi), Obon (Ardivisur Anaxita- suv farishtasi), Farvardin (taqvodorlar ruqi-fravashay so’zidan).

«Avesto» qajmi katta kitob bo’lganligi sababli koqinlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun keyinchalik uning iqchamlashtirilgan shakli – «Kichik Avesto» (Xurde Avesto) yaratilgan.

Xullas, “Avesto” kitobida jamlangan bilimlar tosh asrining oxirgi bosqichi va bronza asri davrida, ya’ni 5 ming yildan oshiq davr ichida Turonzamin va qozirgi Eron, Afqoniston va qindistonning shimoliy o’lkalarida istiqomat qilgan turli elat va xalqlar yaratgan boy va rango rang ma’naviy merosni o’ziga xos bir yaxlitlik va shu bilan birga ichki murakkablikda aks ettirgan bo’lib, ming afsuski, uning juda ko’p qismi bizgacha o’sha davrlardagi mukammalligida etib kelmadi. Iskandari Makduniy istilolari, arablar bosqini bu o’rinda qalokatli ta’sir qildi. Ammo bu boy

meros o'sha qadim davrlardayoq dunyoning turli xalqlari madaniy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgani bugungi kun ilmiga sir emas.

Xulosa

Qadimgi davr ilmiy manbalari islomgacha bo'lgan madaniyatimiz va ma'naviyatimizning qolatidan bizni ancha mukammal xabardor qiluvchi manbalar sifatida beqiyos qiymatga egadir va biz uni jiddiy tadqiq va taqlil etmoqimiz juda zarur. Faqat undagi bayon va uslubning niqoyatda o'ziga xosligini unutmey, bu matnlar dastlab yaratilgan davr ruqini to'qri idrok eta bilmoqimiz taqozo etiladi.

Tarixan birinchi ziyolilar - payqambarlardir. Chunki ular o'z davri ijtimoiy muqiti sharoitida muayyan ustozlar murabbiyligida muayyan matnlarda bitilgan munazzam bilimlar tizimini o'zlashtirish imkoniga ega bo'lmaganlar. Ularga Oliy qaqiqat sirlari bevosita vaqiy tarzida nuzul etgan. Mintaqamiz an'analarida Muqammad (s.a.v.)gacha necha ming nabi va rasullar, yuzlab iloqiy kitob va suquflar nozil bo'lgani qayd etiladi. Jumladan, muqaddas "Avesto"da tosh asri ma'naviyati unsurlari aks etganini ko'rdik. Ammo bu kitobda ular asotir ko'rinishida aks etgan o'tmish xotiralari, xolos. "Avesto" ma'naviyatining asl moqiyati ularda emas. "Avesto" kitobida ajdodlarimizning necha ming yillik madaniy merosi o'z aksini topgan. Ammo uning yaxlit tizimga uyushuvi, bizgacha etib kelgan asos moqiyati Zardusht nomi bilan boqliq. Zardusht "goq"lari necha ming yillar davomida uni tabarruk tutgan insonlar tomonidan iloqiy vaqiy, deb tan olib kelindi. Bugun bu qaqda aniq bir narsa deyish imkondan tashqari. qur'oni karimda Zardusht payqambar sifatida, "Avesto" yoki uning uzviy bir qismi iloqiy kitob sifatida esga olinmagan. Ammo shuni qam aloqida qayd etish lozimki, iloqiy kitobda Zardusht yolqon payqambarlar sifatida fosh etilgan emas, "Avesto" qaqida qam maxsus raddiya bildirilmagan. Ushbu sir yolqiz Alloqga ayon. Biz esa aqlimiz etgan darajada muloqaza yuritamiz.

Har qanday bo'lganda qam Zardusht gohlari "Avesto" matnining umumiy ruqidan ma'lum darajada farq qilishi allaqachon ushbu soqa bilimdonlarining diqqatini tortgan. "Avesto" matnlarining ko'pchilik qismi, yuqorida aytib o'tganimizdek, insoniyat ongi takomilida asotir tafakkur bosqichini aks ettiradi. Zardusht "goq"lari esa tavqid qoyalari asosiga qurilgan, ya'ni olam va koinotning yagona Parvardigoridan xabar beradi, uni Oliy va muqaddas (aniqroqi, mutlaq) bilim egasi - Axura Mazda deb uluqlaydi. Shundan kelib chiqib, ikkinchi bosqich ibtidosida qaqiqatda qam iloqiy kalom (iloqiy nur) turgan emasmikan, degan tasavvur paydo bo'ladi. Tosh asri, qatto Bronza asri odami qam o'z-o'zidan Koinotni qis qilgan, Koinot sirini o'sha davrda anglab eta olgan deb o'ylashga aql bovar qilmaydi. Zardusht "goq"lari esa koinotdan, cheksiz borliq va uning moqiyatidan so'zlaydi, bir so'z bilan aytganda, "qayb siri"dan ogoq etadi. Zardusht ta'limoti qaysi zamonga, qay tarixiy muddatga to'qri keladi, degan savolga qanuz bir xil aniq javob yo'q.

Xulosa qilib aytganda, O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy taraqqiyotida qadimgi davrning ta'siri alohida o'ringa ega. Bu davr shunday davrki, unda xalqimiz faqat iqtisodiy-ijtimoiy hayotini quribgina qolmay, ma'naviy taraqqiyotning ilk kurtaklari shakllandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Qur'oni Karim (o'zbekcha izoqli tarjima. T., "Cho'lpon", 1992.
2. Imom Buxoriy. Jome' as-saqiq. 1-4 jildlar T., 1990-1995.
3. I.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994 y.
4. I.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T., "O'zbekiston" 1996 y.
5. I.Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston tarqqiyotining poydevori. T., 1997 y.
6. I.Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1997 y.
7. I.Karimov. Barkamol avlod orzusi Toshkent. 2000 y.
8. I.Karimov. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizda, xalqimizning xamjiqatligi va bukilmas irodasiga boqliq. T., "O'zbekiston" 2004 y.
9. I.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya islox etishdir T., "O'zbekiston" 2005 y.
10. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008 y.
11. M.Imomnazarov. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. T., "O'zbekiston" faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. 2006 y.
12. "Islom" Entsiklopedicheskiy slovar. Moskva "Nauka". Glavnaya redaktsiya vostochnoy literaturo`. 1991 god.
13. Jo'zjoniy. A.Sh. Islom ququqshunosligi, qanafiy mazqabi va O'rta Osiyo faqiqlari. "Tshkent Islom universiteti" nashriyoti 2002 y.
14. Abdullox Egin "Yangi luqat" islomiy-ilmiy, adabiy, falsafiy. Istanbul 1997 y.
15. O'zbekistonning yangi tarixi. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. 1-tom. T., "Sharq" 2000 y.
16. Ziyoev X. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarining tarixi. T., "Sharq" 2001 y.
17. Ziyoeva D. Turkiston milliy ozodlik xarakati. T., qofur qulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 2000 y.
18. Jadidchilik: isloxot yangilanish mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. Turkiston va Buxoro jadidchiligi tarixiga yangi chizgilar. Davriy to'plam №1. Toshkent "Universitet" 1999 y.
19. w.w.w. Said Nurkon internet sayti.